

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 avgust holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **745 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalarning ulushi **1,1 f.p** ko'paydi
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **645 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-iyul oyida Viloyatda 930 ta yilning boshiga nisbatan korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'ssatayotgan yangi tashkil etildi, bu esa korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga 635 ta (5,6 %) ga o'sgan nisbatan 32 taga kao'paygan.


Shuningdek faoliyati tuga tilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 42,0 % etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy hamda ularning umumiy soni 10027 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlar ning asosiy ulushi Guliston shahrida (32,1 %), Sirdaryo kamaygan hamda ularning (15,4%), Sayxunobod soni 276 tani tashkil (8,6 %) va Yangiyer (7,3 %) tuman shaxarlarida kuzatilmoxda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



## **Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar**


**va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,

2018 yilning 1 avgust holatiga)


	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>10766</b>	<b>100,0</b>	<b>10027</b>	<b>100,0</b>
Guliston shaxri	3428	31,9	3221	32,1
Sirdaryo tumani	1677	15,6	1540	15,3
Sayhunobod tumani	883	8,2	866	8,6
Yangiyer shaxri	805	7,5	734	7,3
Guliston tumani	812	7,5	739	7,4
Mirzaobod tumani	776	7,2	713	7,1
Boyout tumani	823	7,6	752	7,5
Xovos tumani	522	4,8	480	4,8
Oqoltin tumani	413	3,8	388	3,9
Sardoba tumani	384	3,6	366	3,7
Shirin shaxri	243	2,3	228	2,3

**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**



01.01.2018 y.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 93,1 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulishi 6,9 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,1 f.p. kamaygan.



01.08.2018 y.



faoliyat



faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,0 % savdoda, 11,8 % sanoatda, 9,2 % qurulishda, 12,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5,5 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 1,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**

■ Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

■ Sanoat

■ Qurilish

■ Savdo


■ Tashish va saqlash

■ Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar


■ Axborot va aloqa

■ Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

■ Boshqa turlar




### **Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




2018 yil yanvar-iyul holatiga 930 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,4 % ga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Guliston shaxrida (247 ta), Sirdaryo (137 ta), Sayhunobod (96 ta) va Yangiyer shahrida (82 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shaxrida (20 ta), Sardoba ( 50 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### **Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (215 ta), sanoatda (146 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (151 ta) va qurilishda (140 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (10 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (9 ta) va tashish va saqlashda (24 ta) tashkil etilgan.

### **Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'r-satayotgan korxonalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (-0,2 f.p.), qu-rulishda (-1,0 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (-0,2 f.p.), kamay-ganligi, Natijada savdoda (+0,7 f.p.), axborot va aloqada (+0,2 f.p.), tashish va saqlashda (+0,2 f.p.), boshqa faoliyat turlarida (+0,3 f.p ga) ulushining o'sishiga olib keldi.


### **Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda**

<b>Iqtisodiy faoliyat turlari nomi</b>	<b>01.08.2018 y.</b>	<b>01.08.2017 y.</b>	<b>fargi (+-)</b>
Sog'lqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1,3	1,3	0,0
Savdo	26,7	26,0	0,7
Axborot va aloqa	1,8	1,6	0,2
Sanoat	11,8	11,8	0,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	11,8	12,0	-0,2
Qurilish	8,2	9,2	-1,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat-lar	5,3	5,5	-0,2
Tashish va saqlash	5,7	5,5	0,2
Boshqa turlari	27,4	27,1	0,3

### **Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).**

2018 yil 1 avgust holatiga 8067 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2784 ta, oilaviy korxonalar – 82 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 4888 ta, aktsiyadorlik jamiyatları – 23 tani va boshqalar 290 tani tashkil etadi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 101 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 26 taga yoki 25,7 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 74 tasi qo'shma korxonalar, 27 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarining soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumani 47 ta (46,5 %), Guliston shaxri 21 ta (20,8 %), Yangiyer shaxri 10 ta (9,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xovost tumani 1 ta (1,0 %), Sardoba tumani 2 ta (2,0 %), Guliston tumani 1 ta (1,0 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 avgust holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 69 ta (68,3 %), savdoda 10 ta (9,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa 8 ta (8,1 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa qurilishda 5 ta (5,0 %), tashish va saqlashda 4 ta (4,0 %), boshqa tarmoqlar 4 ta (4,0 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta (1,0 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turib-diki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek tashkil etilmaganlar, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'gri keladi.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**




2018 yilning yanvar-iyul oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 17 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 taga kao'paygan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 13 ta, korxonalar yangi tashkil etilgan.

## Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 avgust holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 8023 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyul holatiga qaraganda 8,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2755 tasi (34,3 %) Guliston shahriga, 1290 tasi (16,1 %) Sirdaryo, 700 tasi (8,7 %) Sayxunobod tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 8023 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 2601 tasi (32,4 %) – savdoda, 1164 tasi (14,5 %) - sanoatda, 919 tasi (11,5 %) - qurilishda, 1177 tasi (14,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 554 tasi (6,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 544 tasi (6,8 %) - tashish va saqlashda, 155 tasi (1,9 %) - axborot va aloqa sohasida, 82 tasi (1,0 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 827 tasi (10,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-iyul holatiga 836 ta yaqin kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,3 foizga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Guliston shahrida (206 ta), Sirdaryo (124 ta), Sayxunobod (95 ta) va Guliston tumanlarida (56 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shahrida (18 ta), Sardoba (42 ta) tumanida tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (215 ta), sanoatda (146 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (151 ta) va qurilishda (140 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (10 ta), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (9 ta) hamda tashish va saqlashda (24 ta) tashkil etilgan.



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 avgust holatiga 89 tani tashkil etib, ulardan 82 tasi yoki 92,1 % faoliyat yuritadi. Bu ko`satkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`satayotganlarning umumiy soni o`rtacha **23,3 %**ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 46,3 % yoki 38 tasi sanoat, 18,3 % yoki 15 tasi savdo, 18,3 % yoki 15 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 9,8 % yoki 8 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,2 % yoki 1 tasi axborat va aloqa hamda 6,1 % yoki 5 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



**Viloyat statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
boshlig'i**

**Nashr uchun mas'ul:** K.Yusupov  
(0367) 225-31-00

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat  
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan**